



M.SAFAROVNING "AYRISHOH" ASARIDA TABIAT TASVIRI

Buriyeva Shaxnoza

Termiz davlat universiteti talabasi, Termiz, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5753583>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021

Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021

Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

peyzaj, inson tasviri,
Mengziyo Safarov,
Shodmon bobo, A'zam,
Sora.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Mengziyo Safarovning "Ayrishoh" asaridagi hikoyalarda tabiat tasviri haqida so'z yuritilib, ijodkorning badiiy mahorati, inson obrazini ochib berishda tabiat tasviridan qay darajada foydalangani tahlil qilinadi.

Inson va tabiat tushunchasi hayotning ajralmas bo'lagidir. Bu masala badiiy adabiyotda ham o'z ifodasini topgan. Peyzaj adabiy asarda yaratiluvchi voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon tasviri¹ bo'lib, badiiy adabiyotda uch xil vazifada: asarning estetik quvvatini oshirish, voqealar rivojini tezlatish yoki sekinlashtirish hamda qahramonlar xarakterini ochib berishda qo'llaniladi. Ya'ni ijodkor badiiy asarda tabiat tasviridan foydalanish orqali inson ruhiyatini, xarakterini, uning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalarini ochib berishga intiladi. Shu bilan birga, unda adabiyotning badiiy-

estetik ta'siri, insonning tabiatga bo'lgan munosabati ham namoyon bo'ladi.

Surxondaryolik yozuvchi Mengziyo Safarov ijodida tabiat tasviri alohida o'ringa ega bo'lib, uning "Ayrishoh" asaridagi hikoyalarda inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlik o'z aksini topgan. Uning ijodida peyzaj shunchaki makon va zamoni ochib beruvchi komponent bo'libgina qolmay, asarning bosh mavzusi, mohiyatiga qorishib ketgan. Ma'lumki, badiiy asarda tabiat tasviridan ikk i xil usulda foydalaniladi. Bular: qahramon ruhiyatini tabiat bilan parallel hamda kontrast holda tasvirlashdir. Bunda muallif tabiat tasviri orqali asosiy g'oyaviy

¹<https://saviya.uz>



maqsadini ilgari suradi. Jumladan, M.Safarovning "Ota yurt" hikoyasida qahramon xarakteri tabiat bilan parallel holda tasvirlangan. Asarda ona vatanni sevuvchi, tabiatga befarq bo'lmagan inson obrazi yaratilgan. Bundan tashqari, bosh qahramon Shodmon bobo xarakteridagi injiqlik va sel obrazi o'rtasida bog'liqlik mavjud bo'lib, qahramon ruhiyatidagi bo'ysunmaslik, qaysarlik bahorda qishloqqa qayta – qayta kelib uylarni, butun adirlarni ko'chirib ketvchi sel obraziga o'xshatilgan. "Uning ruhida osoyishtalik hosil bo'lishiga soy kamarlarida pitirlab, sayrab, uchib-qo'nib yurgan bulbullarning sho'x ovozi ham sababchi bo'ldi. Mana, ular ham jonivor-ku, hech nima bo'lmagandek, hech nimani ko'rmagandek. Yomg'ir yog'sa yog'ibdi-da, ko'chki ko'chsa ko'chibdi-da. Yoz keldi hammasi joy-joyiga tushib ketadi²".

Mengziyo Safarov hikoyalarida qahramonlarning butun orzu-umidlarini, g'am-tashvishlarini tabiatga uyg'un holda tasvirlaydi. "Bedanalar" hikoyasida yuqoridagi fikrning isbotini ko'rishimiz mumkin. Ba'zan inson o'zini chorasiz, tushkun holda his qiladi. Yozuvchi qahramonning ana shu kayfiyatini yanada ochiqroq ifodalash uchun bedana obrazidan foydalangan bo'lib, bunda ushbu obraz bolalik xotiralarini, ona vatanni yodga soluvchi ramziylikka ham egadir. "Bedana kichkinagina kulrang, yong'oqsimon boshchasini sarak-sarak qilib, to'r kataklariga suykanar, yuqoriga sapchir, qovoqqafas chayqalar, suvdondagi suv yerga to'kildirdi. O'sha damdagi holatim va bedana tutqunligida allaqanday o'xshashlik bordek tuyuldi. Ruhimni ezg'ilayotgan shikasta kayfiyatning uchini topgandek

bo'ldim³". Umuman olganda, Mengziyo Safarov inson tasvirini yaratar ekan uning har bir holati, ichki kechinmalarini borliqdagi kichik detallar bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Uning hikoyalarida tog'-hayot ramzi, tabiat- majruh ko'ngilga taskin, burgut sadoqati –ona yurtga muhabbat, kuz- inson kamoloti, daryolar- el-yurt, xalq ramzi, siren gullari esa qahramonning armonli, pok muhabbati sirdoshidir. Bunday tasvir usulini A.Qodiriyning "O'tgan kunlar" romanida ham ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, Otabek va Kumush ilk marta ariq bo'yida uchrashadi. Adib Kumushning bu holatdagi cheksiz hayajonini ariqda oqayotgan suv tasviri orqali ifodalaydi. Yoki Otabekning qabristonda tunash qismini olaylik. Yozuvchi asardagi qabriston tasviri orqali qahramon ichki olamida kechayotgan fojiani aks ettirgan.

Mengziyo Safarov hikoyalarining o'ziga xos tomoni uning qahramonlari oddiy, mehnatkash odamlar bo'lsa-da, keng dunyoqarashga ega bo'lgan, atrofga o'zgacha nigoh bilan qarab, ko'pchilikning e'tiboridan chetda qolgan kichik detallar to'g'risida ham mulohaza yurituvchi insonlardir. Uning qahramonlari favqulotda qahramonliklar ko'rsatmaydi, ammo kutilmagan vaziyatlarda o'z insoniyligini kichik bir harakati orqali namoyon qiladi. Jumladan, "Qizil belbog'lar" hikoyasi qahramoni A'zam o'z jonkuyarligi bilan ikki insonning hayotini asrab qoladi. "O'tayotgan kunlar" hikoyasidagi Sora obrazida esa ruhiy kamolotning yuksak namunasini ko'rish mumkin. Hikoyada muallif insonlarga xos xususiyatlarni jonsiz predmetlarga, tabiatning turli hodisalariga ko'chirish orqali jonlantirish san'atidan foydalangan. Qahramon

²M.Safarov "Ayrishoh" (qissa, hikoyalar) 179-bet

³M.Safarov "Ayrishoh" (qissa, hikoyalar) 213-bet



ruhiyatidagi tushkunlikni esa “shamol” , “qyun” , “qora bulut” , “yomg’ir” so’zlari bilan ochib beradi. ”Tushga borib sharq tomondagi tog’larni qora bulut bosdi. Daryo ustida siyraklashib turgan bulut quyushdi. Shamol kuchayib, bulutlarni harakatga keltirdi. Atrof qorong’ilashdi. Unsiz, vazmin shov- illaganicha yomg’ir quya ketdi. Kuzning so’nggi kunlariga xos g’ussali kayfiyat, dilxastalik uning vujudini kemirardi ⁴. Shu bilan birga, hikoya davomida uning kuz faslidagi g’ussali, horg’in kayfiyati o’rnini bahor kelishi bilan hayotga ,kelajakka bo’lgan umid egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, Mengziyo Safarov
J.London, S.Tompson, E.Xeminguey

Sh.Xolmirzayev kabi tabiat mavzusida takrorlanmas asralar yaratdi. Uning ba’zi hikoylarida tabiatning maftunkorligi, go’zalligi tasvirlansa, boshqalarida ekologik muammolar, tabiatni asrash haqida fikr yuritiladi.Eng muhimi unda tabiat tasviri orqali faqat inson ichki olamini tasvirlashga emas, balki o’quvchining e’tiborini voha tabiatiga, uning iqlimi va tabiiy muammolariga qaratishga ham e’tibor berilgan. Demak, yozuvchining bundan maqsadi inson va tabiat tushunchalarining asl mazmun -mohiyatini ,vazifasini, asardagi o’rnini ifodalashdan iborat bo’lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengziyo Safarov “Ayrishoh” (qissa, hikoyalar)
2. Izzat Sulston “Adabiyotshunoslik nazariyasi”
3. Hotam Umurov “Adabiyotshunoslik nazariyasi”
4. <https://saviya.uz>

⁴M.Safarov “Ayrishoh” (qissa va hikoyalar)199-bet